

## SHE'RIY QISSALARDA AXLOQIY DIDDAKTIKA

*Kentayeva Gulmira Ismadiyarovna*

*Tashkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xolisning she'riy qissalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Manba yangiligi bilan ahamiyatlidir.

**Tayanch so'z va iboralar:** Turkiy adabiyot, she'riy qissachilik, "Yusuf va Zulayho", islom tarixi, turkiy xalqlar, axloqiy didaktik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется повести Холиса. Источник отличается своей новизной.

**Опорные слова и выражения:** тюркская литература, стихотворное повествование, повест "Юсуф и Зулайхо", история ислама, тюркский народ, воспитательно-дидактический.

**Summary:** At the end this article contains information about Xolis's verse stories. The source is significant for its novelty.

**Keywords and expressions:** Turcic literature, verse story, the story of "Yusuf and Zulaykho", history of Islam, the Turkish people, ethycal-didactic.

Xolis adabiy merosini o'rganar ekanmiz, uni diniy-didaktik badiiy adabiyot namunasi deb tilga oldik. Xo'sh, diniy-didaktika nima degani, uning boshqa adabiy yo'nalishlar kabi o'ziga xos xususiyarlari bormi? Shamsiddin O'zgandiy <sup>1</sup>ijodida ular qanday o'z aksini topgan? Shoirning sujet yaratishdagi mahorati hamda g'oya va o'brizlari dunyosi bilan tanishishdan oldin ana shu masalalarga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Diniy-didaktika – diniy-ibratlar degan ma'nosi beradi Zero, didaktika grekcha so'z bo'lib, ibratli ma'nosini ifodalaydi. Allohga ishonish, Muhammad uning yerdagi elchisi ekanini tan olish "osmon kitoblari" dagi oyatlarining rostligiga iymon keltirish islom dinining asosiy mohiyatini belgilaydi. Alloh va uning kitoblari, Muhammad payg'ambar, uning faoliyati va kitoblari ham inson e'tiqodi, axloq, odobi masalalariga bag'ishlanib, ma'naviy kamolotda mukammal insonni tarbiyalashga qaatilgan edi. Quroni karimda insonga hos barcha yaxshi sifatlar targ'ib qlinib, ana shu sifatlarga erishan insonlar uchun mukofot borligi va barcha yomon sifatlar qoralanib, bu sifatlarni o'zida zoxir etgan kishilar uchun og'ir jazo mavudligi bayon qilinadi. Muhammad payg'ambar o'z hayoti davomida aa shu pok axloqlik, manaviy yetuklikni targ'ib qilib, salbiy hislatlarni inson hulqidan yiroqlashtirishga harakat qiladi. Alloh esa uni huddi shu sohada insonlarga namuna bo'lishi uchun yer yuziga yuborgan edi

---

<sup>1</sup>Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – T.: Adabiyot san'at nashiriyoti, 1991. -184 b.

(Buni Navoiy ham o'z asarlarida takidlaydi). Keyinchalik payg'ambar yo'lidan brogan va kamolatda yuksaklikka erishgan ko'plab insonlar ham yetishib chiqdi. Ular hayot kechirishda payg'ambarlardan o'rnak oldilar va uning ayitganlariga amal qildilar. Bundan tashqari, Alloh o'z kalomi sharifida har bir yomon hislatga baxo berar va uning jazosini bayon qilar ekan. Yaxshi hislatlar to'g'risida ham shunday dedyish mumkin.

Endi badiiy adabiyot to'g'risida gapiradigan bo'lsak, uning ham asoiy masalasi inson axloq-odobi, ma'naviy pokligi masalasidir. Tom ma'nodagi go'zal, komil inson va uning hislatlarini targ'ib qilish adabiyotning adabiy barhayot mavzusi ekan, bu jihatdan din va adabiyot maqsadlari o'rtasidagi mushtarlik o'z-o'zidan ayon bo'lib qoladi. Huddi mana shu g'oyaviy maqsadning birligi din va adabiyotning o'zaro chatishuviga olib kelgan edi. Bu yaqinlashish diniy ta'limotga mansub (Hususan Quronga oyid) hususiyatlarning badiiy adabiyotga ko'chish va unga juda chuqur singib ketishiga imkoniyat yaratadi. Diniy-didaktika am (keyinchalik u yo'nalish sifatida ajralib chiqdi) ana shunday asosda yuzaga keldi. Shoir yoki boshqa ijodkor avvalo biror fikr bildirar ekan, unga nisbatan musulmon dunyosining muqaddas kitoblari sanalmish Quron va Hadisda qanday qaralgan yoki payg'ambar va uning salafarlari qanday munosabatda bo'lishganligini alohida hisobga olgan va iloji boricha o'z fikrini ana shu manbalardan olingan tamsillar orqali isbotlagan. Asarga ana shu asosda tarbiyaviy tus berilgan va unga diniy e'tiqod ham o'z-o'zidan singa borgan. Dastlabki diniy-didaktik asarlar ana shunday harakterga ega edi. Shuning uchun didaktika, yani "ibrat" ko'proq misol, dalil, isbot hususiyatiga ega bo'ladi. Ammo hamma hollarda ham u ta'limning vazifani bajargan. Biror fikr masalasida keltirilgan misol yoki dalil o'quvchining o'sha fikr yuzasidan muayan hulosaga kelishiga, yani bilim olishiga ko'maklashgan. Shu jihatdan qaralganda diniy-didaktik adabiyot bilan diniy-mistik adabiyot o'z mohiyatiga ko'ra ilmi g'ayib bilan shug'ulanuvchi adabiyotdir. Uning g'oyalari ham inson ruhini kamolga yetkazish (komil inson kompensiyasi) va tajvid sirlari, vaxdat ul vujud ta'limoti bilan bog'lanadi. Diniy-mistik adabiyot sufiylik adabiyotining o'zi. Uning vakillari irfoniy adabiyotda "hos ahli" deb yuritiladi. Sufiy tavidga intilish davomida bir qancha tasavvuf bosqichlarini bosib o'tishi kerak bo'lgan, jumladan shariyat va tariqat bu bosqicharining dastlabki hisonlangan. Ana shu ikki bosqich maqomlarini bosib o'tish masalalarini yoritishda diniy-mistik adabiyot vakillari o'z asarlarida turli diniy misol va dalillardan (yani dastlabki diniy-didaktikadan) keng foydalanganlar. Ammo mistik adabiyot komil inson g'oyasini targ'ib etuvchi va ana shu komillikka eltuvchi yo'llarni ko'rsatuvchi qanchalik chuqur ta'limot bo'lmasin, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy imkoniyatlar tufayli odamlar ommaviy ravishda unga ergasha olmas edilar. Sufiylik adabiyotining faqat shariya bosqichi bilan bog'liq g'oyalarigina ommaviy ta'limiga biroz mos kelishi mumkin. Diniy-didaktik adabiyot esa ko'proq ana shu omaviy g'oyalar bilan, ommaviy g'oyalar bilan, ommaviy ta'lim bilan bog'langan bo'lib mistik ta'limdan ko'ra

yengiroq qabul qilingan. Qorishiq holdagi bu ikki adabiyot o'rtasidagi ana shunday farqlar ularning bir qadar ajralishiga olib keldi.

<sup>2</sup>Diniy-didaktik adabiyotining namunalari sifatida o'sha davrda xalq og'zaki ijodi, shuningdek yozma adabiyotda mavjud bo'lgan anchagina rivoyatlar, hukoyatlar, tamssillarini ko'rsatish mumkin. Bu janrlardagi asarlar "isonning ma'naviy kamoloti va axloqiy barkamolliliga qaratilgan bo'lib, ularda insonga bo'lgan muxabbat, e'tiqod sofligi, kishilarning bir-biriga do'stona munosabatlari, payg'ambar va avliyolar barhaqligini e'zozlash, gunohga botmaslik uchun kabix va yaramas ishlardan nafsini jilovlash kabi insoniy masalalar ko'tarilgan". Yuqorida diniy-didaktik asarlar ommaviylik hususiyatiga ega ekanligini ayitgan edik. Hikoyat va rivoyatlar ham ana shu hususiyatni o'zida namoyon etib hamma uchun hos bo'lgan quroniylar g'oyalar. Shuningdek din asoslari, payg'ambarlar tarixi ayniqsa islom dini taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan.

<sup>3</sup>Bilib ushbu alomatni o'ziga kelmagan odam,  
Ichib,yeb visli xayvon,qulligini qilmagan odam,  
Yomon yo'lda hamma umrida bir yig'lamagan odam,  
Musulmonlik yo'li qaysi erur deb kermagan odam,  
Qilib qilma degonni,qil degonni qilmagan odam.  
Sanga xar soatu,xar dam ikki kotib-malak birga,  
Bitarlar bandadin yaxshi,yomon lelsa agar tilga,  
Bo'lur og'zing davot anda,qalam bo'lgay tiling anga,  
Muni xech o'ylamaydursan,tegibdur na balon sanga,  
Bularni xaq bilib emdi o'ziga kelmagan odam.  
Musulmon o'g'lidur oti,erur ko'bi zamon foxish,  
Bo'lib osiy, xudoga aylayursan bexuda koxish,  
Yomonlikdan xamisha bir ko'ngilni qilmading...  
Qiyomat kun boshingda tushqusidur ko'b qabohat ish,  
Yomonlikda yurib bir yaxshilikni qilmagan odam.  
Kecha-kunduz malak bitgay yomonu yaxshi amoling,  
Agar bo'lsa savobing ko'p balandlik qilgay iqboling,  
Uboling ko'b bo'lur bo'lsa nachuk kechgay sani xoling,  
Ki xayr ishiga yaramas o'lim topqach sani moling,  
Xato birla o'tub yoshlik, qarab ham qo'ymagan odam.  
Ayo,Xolis,uzung boq,gunoxini garon qilding,  
Laxadda to qiyomatga o'zungni bilur bo'lding,  
Boshida bu o'lim bor deb san o'zunga qachon kelding,  
Qo'yub yaxshi amallarni yomong'a yugurib elding,

<sup>2</sup>Javohirul hikoyat. Ibratli hikoyatlar, pandlar, o'g'itlar ( so'z boshi. Saidbek Hasan). -T.: Yozuvchi, 1993. -112 b.

<sup>3</sup>Ibratnoma. Inv. N 822572, qo'lyozma, shikastda xatida.

Ajab, parvoyi yo'q qandoq bo'loring bilmagan odam.

Ko'rinib turibdiki, qissada insonning dunyodagi faoliyati butunicha olib taxrir qilinadi. Unga qo'shimcha ravishda qabr azobi valaxaddagi axvoli xam bayon qilinadi. Buni odamni qo'rqitish yoki kaltabin fanatiklik deb tushunmaslik kerak. Aksincha ogoxlantirish, yaxshilikka undash dinga chaqirish, iloxiy qudratni tan olishga chorlash-umumiy qilib aytganda, insoniy sifatlarga yo'llash deb qabul qilish lozim. Insoniy sifatlar esa oxir oqibatta iloxiy moxiyat bilan qo'shilib ketishiga olib borishi kerak." Arvohnomadagi ilgari surilgan fikrlar ana shulardan iborat.

Xolisning "Nasiatnoma" asari bir qancha axloqiy-tarbiyaviy hikoyatlardan tashkil topgan. Bu asar boshqa qissalar kabi malum bir sujjet yo'nalishiga ega bo'lmasada, ammo o'ziga xos zanjir bog'lanishiga ega. Xolis insonning biror xislati to'g'risida yoki bo'lib o'tgan biror voqea to'g'risida so'zlab bo'lgach, unga nisbatan o'z fikir mulohazalarni ham bildiradi va buni bevosita o'zi bayon qilgan hikoyatda bog'lab yuboradi. Nomada turli xodisalar xaqida, jumladan avliyolar faoliyati, ishiqqa sodiqlik, shariat qonun-qoidalari, unga hilof va nohilof ishlar, Muhammad Salallohu alayhi vassalam payg'ambarning o'lim oldidan xalq oldiga chiqmoqchi bo'lgani, o'limidan qo'rquanligi, qabr azobi, nematlar haqida, nima halolu nima haromligi, qiyomat xaqida tarozu sirot nima ekanligi, shafokat nimayu qachon bo'lishi, bexisht va do'zax nima ekanligi to'g'risida hikoyatlar keltirilib, o'z o'rnida holis ularga nisbatan munosabatini xam bildirib boradi. Asarda nafaqat diniy axloq to'g'risida nasixat qilingan, balki insonning kundalik hayoti bilan bog'liq turli hislatlari ham sherga solingan. Inson tirik ekan, har kuni kim bilandir so'zlashadi, kimga nimadir vada beradi, kimga og'ir va kimgadir yengil so'zlaydi. Qandaydir bir ish qilishi haqida gapiradiyu, ammo uni amalga oshira olmaydi. Yoki inson kishilar bilan xar kuni muomilada bo'lar ekan, kimgadir yomon gapiradi, yomon so'z eshitadi. Bazan bemani suxbatlar qilib, aziz so'zlarni bulg'aganicha vaqtini o'tqazadi. Bularning hammasi insonning kaltabilligi, dunyodan befoyda kechayotgan hayoti ko'rinishidir. Xolis avlodlarga ana shunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik, umrini guldek yashnatib kechirish haqida nasixatlar qiladi. Inson tarbiyasi o'z qo'lida, dunyoda insonlarni chetdan kelib tarbiyalovchi boshqa jonzot yo'q, ular bir-biriga tasir o'tkazish oqibatida kamol topadilar. Lekin hayotta faqat yaxshi tasir ko'rsatuvchi bo'lish lozim. Hayotda johil insonlar ko'p uchraydi. Lekin ular bilan doim hush muomilada bo'lmoq kerak. Johilga johilona bo'lish har ikki insonni ham gunohga botiradi. Aksincha, unga shirin so'zlab, jaholat botqog'idan tortib olib, farog'at bog'I tomon yo'llash mumkun. Bundan tashqari, inson insonlarni o'zidan bezdiruvchi bo'lmasligi kerak, aksincha u kim bo'lmasin, do'stona munosabatda bo'lmoq inson axloqiga oliy tasir ko'rsatadi. Do'stlar uchun inson hamma narsaga tayyor bo'lmog'I lozim. Do'st jaholatga botayotganini, inson garchilikdan chiqayotganini ko'rib indamay ketish ablahlik bo'ladi. Yoki uning azoblariga sherik bo'lmaslik ham huddi shunday. Agar do'st

yomon yo'lga ketayotgan bo'sayu, uni so'z bilan qaytara olmasang urib bo'lsa ham, tanaga jaroxat yetqazib bo'lsa ham yo'ldan qaytarishing kerak, deya nasixat qiladi Xolis. Zero, bu sening unga yomonliging emas, yaxshiliging bo'ladi.

<sup>4</sup>Asarda ana shu kabi fikirlar va ularni o'z bag'riga sindirgan qator hikoyatlar keltirib, Xolisning insoniy fazilat sinalmish shirin so'zlik, hushmuomulalik odobi, vafo va sadoqat, do'st va do'stlik, bemani insonga munosabat va hokozolar haqida kelgan xulosalari va shuningdek, dunyoqarashini to'laroq o'rganishda katta ahamiyatga kasb etadi.

“Yusuf va Zulayho” mavzusi juda qadimiy mavzu ekanligi hammaga malum. Bu sujyet asosida arab, fors va turkey tilda XIII asrdayoq uning namunalari mavjud edi (Alining shu nomad asari bo'lgan). XIX asrda esa bu sujyet nihoyatda keng tarqalib, shu asosida ko'plab asarlar bunyod etildi. Fors-tojik tilida Nodim va Xoziq kabi shoirlarning asarlari borligi malum. Turkiy tilda esa Andalib, Xiromiy kabi shoirlar xam “Yusuf va Zulayho” qissalarini yaratishgan. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodidan xam bu sujyet chuqur o'rin olgan edi. Xolis ham bu mavzuga murojat qilib, yirik hajmga ega bo'lgan bir qissa yozib qoldirgan. Qissaning bugungi kunda ko'plab nusxalari bo'lib, asar o'z davrida keng tarqalganligi va xalq tomonidan sevib o'qilganligidan dalolat beradi.

Shoir ijod davomida undagi bir qator voqealar, obrazlar, epizotlar yoki lavxalarga o'zgartishlar kiritib, kitobxonlarga qissaning o'ziga xos variantini taqdim etadi. Asarning o'ziga xos xususiyatlari haqida keying bobda to'laroq malumot beramiz. “Yusuf va Zulayho” sujyeti ancha chuqur o'rganilganligi tufayli Xolis asarning qisqacha mazmuni to'g'risida to'xtalishga xojat bo'lmasa yo'q.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – T.: Adabiyot san'at nashiriyoti, 1991. - 184 b.
2. Javohiril hikoyat. Ibratli hikoyatlar, pandlar, o'g'itlar ( so'z boshi. Saidbek Hasan). –T.: Yozuvchi, 1993. -112 b.
3. Ibratnoma. Inv. N 822572, qo'lyozma, shikastda xatida.
4. Jumaniyozov R. Xalq ijodi – Haq ijod. – T.: O'zbekiston, 1993. -78 b.

---

<sup>4</sup>Jumaniyozov R. Xalq ijodi – Haq ijod. – T.: O'zbekiston, 1993.-78 b.